

“ЖАНУБИЙ ВА ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ ОСИЁ ТИЛЛАРИ”  
КАФЕДРАСИНИНГ 75 ЙИЛЛИК ТАРИХИ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7388924>

**Муҳибова Улфатхон Учқуновна**

Фил.ф.д., профессор

Жанубий ва Жанубий Шарқий Осиё тиллари

кафедраси мудири,

Махатма Ганди ҳиндшунослик маркази раҳбари

e-mail: [ulfatmuhib8@mail.ru](mailto:ulfatmuhib8@mail.ru)

Tel.: +998 95 644 30 37

**Кафедранинг ўқув соҳаси.** Кафедра 1947 йил ташкил топган бўлиб, даставвал “Шимолий ҳинд филологияси” (1947), сўнг “Ҳинд филологияси” ва 1993 йилдан бошлаб эса “Жанубий Осиё тиллари” номи билан фаолият олиб борди. 2018 йилдан бошлаб “Жанубий ва Жанубий Шарқий Осиё тиллари” кафедраси деб номланади. Кафедрада ўқув жараёни икки босқичда, яъни бакалавр (*таълим йўналиши 60230100-Филология ва тилларни ўқитиш*) ҳамда магистратура (*70230101 – Лингвистика (шарқ тиллари бўйича)*) босқичларида олиб борилади.

Кафедрада узоқ йиллардан бери анъанавий равишда ўқитилиб келинаётган ҳиндий, урду тилларидан сабоқ берилиши билан биргаликда индонез, малай ва вьетнам тилларидан ҳам таълим берилиб келинмоқда. Кафедрада 30 дан ортиқ ихтисосликка асосланган фанлар ўқитилади. Кафедра талабалари шарқ тиллари билан биргаликда қўшимча хорижий тил сифатида ғарб тилларидан бирини мукамал ўзлаштириш имкониятига эгадирлар.

Мазкур кафедрада ҳозирда 1 та фан доктори, профессор, 5 та фан номзоди, доцент, 3 та катта ўқитувчи ва ўқитувчилар фаолият юритиб келмоқда. Таъкидлаш жоизки, кафедрада бир неча йиллар давомида етук профессор-ўқитувчилар (проф. О.Н.Шоматов, проф. А.П.Иброҳимов, доц. Т.Х.Холмирзаев, доц. Ш.Э.Жалилова, доц. С.Аъзамова, доц. З.С.Комилов, доц. Х.Б.Бегизова ва ҳоказо) ҳам фаолият юритганлар.

Кафедрада ўқув соҳасида кўплаб ютуқларга эришилган. Жумладан, 65 га яқин ўқув қўлланма ва дарсликлар чоп этилди, кўпгина дасрликларга гриф ва

патент олинган, 40 га яқин монография, 15 та таржима асарлар ҳамда 11 та луғат нашр этилди. Айниқса, проф. О.Н.Шоматов ҳамда кат.ўқт. Баёт Раҳматов томонидан яратилган “Ўзбекча-ҳиндийча луғат”нинг тақдимоти Ҳиндистон Республикасининг Бош Вазири Жаноб *Нарендра Модининг* юртимизга 2015 йил қилган расмий ташрифи чоғида бўлиб ўтган.

Кафедрада сўнгги йилларда “Ҳиндий тили дарслиги”, “Урду тили дарслиги”, “Урду тили лексикологияси”, “Ҳиндий тилининг меърий грамматикаси”, “Ҳиндий тилидан амалий қўлланма”, “Ҳиндийча-ўзбекча этнографик луғат”, “Урдуча-ўзбекча луғат”ларнинг нашр этилиши натижасида, ўқув режада белгиланган фанларнинг адабиётлар билан бўлган таъминоти янада бойиди.

Тошкент давлат шарқшунослик университетида ҳиндий тили, Ҳиндистон халқлари адабиёти, тарихи, фалсафаси, иқтисодиёти ва ташқи сиёсатини амалий ва илмий жиҳатдан ўрганиш бўйича кўпгина илмий тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда: алоҳида услубий ишланмалардан тортиб то ҳинд тилини ўрганишгача махсус мактаблар учун ҳам, олий ўқув юртлари учун ҳам дарсликлар, ўқув қўлланмалар, антологиялар, луғатлар, монографиялар нашр этирилган. Шунингдек, университетда янги очилган туризм ва халқаро журналистика соҳалари ҳиндишуносликдаги янги йўналишлар бўлиб, Ҳиндистонни яна ҳам чуқурроқ ўрганишга хизмат қилади.

Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасида таълим соҳасида ҳам кўпгина ютуқларга эришилди. Хусусан, университетимиз Ҳиндистоннинг Жамия Миллия университети ва Деҳли университетлари билан Ўзаро англашув Меморандумини имзолади. 2020 йилда Гужарат университети билан магистратура мутахассислиги бўйича Қўшма таълим дастури (1+1) имзоланди ва ушбу дастур бўйича 2022 йилда 5 нафар талабамиз ўқишни муваффақиятли якунлаб икки университет димломига эга бўлдилар.

**Кафедранинг илмий-тадқиқот соҳаси.** Кафедранинг таркибидан келиб чиққан ҳолда ҳозирда кафедранинг илмий салоҳияти тахминан 30%га тенг. Сўнгги йилларда кафедрада илмий салоҳиятинни кўтариш мақсадида кўпгина амалий ишлар амалга оширимокда, хусусан, ёш ўқитувчиларнинг илмий иш мавзулари тасдиқланиб лр устида амалий иш бошлаш йўлга қўйилмоқда. Кафедрада ўтган 75 йил дврида устозлар ва бугунги унда фаолият олиб бораётган ўқитувчилар томонидан қарийб ... дан ортиқмоногафиялар, ...га яқин дарсли, ўқув қўлланмалар ва хрестоматиялар нашр этирилган. Кафедрада фаолият олиб борган деярли ҳар бир профессор-ўқитувчи доимий равишда

Республика ва Хорижий журналларда илмий мақолалар нашр эттирганлар, Халқаро илмий анжуманларда иштирок этиб келадилар. Хорий мамлакатлар - Ҳиндистон, Россия, Америка, Англия, Суринам, Маврикия, Голландия, Эрон, Жанубий Корея, Покистон, Индонезия, Малайзия, Вьетнам, Қозоғистон, Тожикистон, Озарбажон ва бошқа бир қанча мамлакатларда малака ошириш курсаларида, таржимонлик фаолиятида ҳамда илмий стажировкаларда бўлганлар. Ўзбекистонда тамил адабиёти бўйича илк илмий изланишлар олиб бораётган Мактуба Муртазахўжаева ХХ асрнинг таниқли тамил ёзувчиси Чиннаппа Бҳарати романлари бўйича ўз илмий тадқиқот ишини яқунлаш арафасида. Таҳсинга сазовор томони шуки, М.Муртазахўжаева Ч.Бхаратининг “Павлайи” романини ўзбек тилига таржима қилиб, “Жаҳон адабиёти” журналлари саҳифасида эълон қилди. Сўнгра алоҳида бир роман таржимаси сифатида нашр эттириб, унинг тақдиротини Ҳиндистонда Ч.Бҳарати иштирокида ўтказишга муваффақ бўлди ва ёзувчи билан унинг ижоди бўйича амалий суҳбат қилиб, илмий ишлари учун керакли маслаҳатларни олиб қайтган.

Кафедранинг етук профессор ўқитувчилари Жанубий Осиё мамлакатларининг кўплаб халқаро мукофотлари билан тақдирланганлар. Жумладан, Ўзбекистонда ҳиндий тилининг ривожига кўшган ҳиссаси учун фил.ф.н., проф. О.Н.Шоматов Ҳиндистон ҳукуматининг “Жорж Грирсон” Халқаро мукофотиغا, фил.ф.н., доц. Т.Х.Холмирзаев Ўзбекистонда урду тилининг ривожига кўшган ҳиссаси учун Покистон Ҳукуматининг “Ситара-е Имтияз” Халқаро мукофотиغا, фил.ф.д., проф. У.У.Муҳибованинг ҳиндий тили тарғиботиغا кўшган ҳиссаси учун Ҳиндистон ҳукуматининг “Ҳиндий тили тарғиботи учун” мукофотиغا ҳамда фил.ф.н., доц. С.С.Нурматов ҳам Ўзбекистонда ҳиндий тили ва маданиятини тарғиб этишдаги кўшган ҳиссаси учун Ҳиндистон Республикасининг “ICCR (Indian Council for Cultural Relation) Distinguished Alumni Award 2017” каби мукофотларга сазовор бўлганлар.

Кафедрада кўплаб илмий лойиҳалар амалга оширилган. Жумладан, ф.ф.д., доц. У.У.Муҳибова раҳбарлигидаги А-38 “Бобурийлар даври адабиёти (ҳиндий, урду, туркий ва форсий манбалар асосида)” мавзусидаги лойиҳаси амалга оширилган ва натижада икки қисмдан иборат монографик тадқиқот нашр этилган.

Кафедрада илмий тадқиқот ишларига алоҳида эътибор қаратилади. Кафедра мудири У.Муҳибова 2015 йилда докторлик (DSc) диссертациясини мувофақиятли ҳимоя қилди. Шунингдек, кафедранинг бошқа ёш ўқитувчилари ҳам ўз илмий тадқиқот ишларини яқунлаш арафасидалар. Улар орасида тамил

адабиёти, индонез адабиёти, вьетнам адабиёти, ҳинди, урду, малай ва индонез лингвистикаси бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда.

**Кафедра битирувчилари.** Кафедрада ҳар йили бешта шарқ тили бўйича 50 га яқин мутахассислар етишиб чиқади ва уларнинг аксарияти турли хил давлат ва хусусий ташкилотларда меҳнат қилмоқдалар. Жумладан, улар Ташқи ишлар вазирлиги, ҳиндий ва урду тилларига ихтисослашган мактаб ва лицейларда, Элчихона ва маданият марказларида, Халқаро Аэропортда фаолият юритиб келмоқдалар. Шунингдек, турли хил хориж билан ҳамкорликда фаолият юритилаётган ташкилотларда, жумладан, “Akela Group”, турли хил “Туризм”га оид МЧЖда (“Injoy Travel”, “Excellent pougraphy” хусусий туристик фирмалари) ҳамда “Дунё ва давр” газетасида таржимонлик лавозимларида меҳнат қилиб келмоқдалар.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш лозимки, кафедранинг ташкил топганидан то шу давр мобайнида битирганлар орасида Хорижий мамлакатларда турли хил юқори лавозимларда ишлаган ва ишлаб келаётган мутахассисларимиз ҳам талайгина. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг Ҳиндистондаги собиқ биринчи Элчиси проф. С.М.Мирқосимов, Ўзбекистон Республикасининг Англия ва АҚШдаги собиқ Элчиси ф.ф.н., доц. Ф.Ф.Тешабоев каби ҳиндшуносларимиз ҳам кафедрамиз битирувчилари ҳисобланади.

Кафедра талабаларимиз ўртасида турли хил ютуқларга эришганлари ҳам талайгина. Жумладан, кафедрамизнинг беш нафар талабаси индонез тили бўйича ўтказилган “Нотиклик маҳорати” танловида иштирок этиб, совринли мукофотларга сазавор бўлдилар ва Индонезия университетларидан бирида бир йил таълим олиш имкониятига эга бўлдилар.

2019 йилда М.Гандининг таваллудининг 150 йиллиги жаҳон миқёсид кенг нишонланаётган бир пайтда Тошкент давлат шарқшунослик университети Ҳиндистон элчихонаси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси ҳамда ШХТнинг Ўзбекистондаги Халқ дипломатияси маркази билан ҳамкорликда “Маҳатма Ганди фалсафий таълимотида халқ дипломатияси” мавзусида махсус семинар ташкил этди. Семинарда Ҳиндистон томонидан Ҳиндистон Парламенти аъзоси Анил Кумар Шастри ҳамда гандишунос олима Шобҳана Радҳакришналар иштирок этдилар.

2022 йил июль-сентябрь ойларида университетнинг олти нафар ҳиндшунослари Ҳиндистоннинг Маҳатма Ганди Халқаро ҳиндий тили университетида оғзаки таржима курсларида таҳсил олиб қайтдилар.

Тошкентдаги Л.Б.Шастри номли Ҳинд Маданияти маркази томонидан университетимизнинг беш нафар ҳинди тили талабалари Аградаги Марказий ҳинди тили олийгоҳига бир йилга ўқишга юборилдилар. Хозирда кафедранинг кўплаб битирувчилари ўқув курсларини муваффақиятли тугатиб, Ҳиндистоннинг нуфузли университетларида ҳам таълим олмоқдалар.

**Кафедранинг хориж билан йўлга қўйган алоқалари.** Кафедрада хориж билан алоқалар яхши йўлга қўйилган. Ҳамкорликда соҳани ривожлантиришга қаратилган кўплаб ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, проф. О.Н.Шоматов ташаббуси билан Ҳиндистон Элчихонаси ҳомийлигида кафедра қошида “Маҳатма Гандҳи ҳиндшунослик маркази” очилган. Шунингдек, Покистон Элчихонаси ҳомийлигида “Покистон маркази” ҳам ташкил этилган. Шунингдек, кафедра қошида “Индонез тили маркази” ҳамда “Вьетнам тили маркази” ҳам элчихоналар ҳамкорлигида ташкил этилган.

Кафедранинг Ҳиндистоннинг “Дехли Университети”, “Ғолиб Университети”, “Ҳайдаробод Университети”, “Гужрат университети”, “Вивекананда илмий тадқиқот марказ”лари билан ҳам алмашунув доирасидаги меморандумлари ҳам имзоланган.

Сўнгги йилларда кафедранинг кўплаб профессор-ўқитувчилари хорижда малака ошириб қайтдилар. Кафедранинг икки нафар ўқитувчиси Ҳиндистонда ва ир нафар ўқитувчиси Малайзияда хорижликлар учун ташкиллаштирилган ўқув курсларида малака оширдилар. Шунингдек, Ҳиндистон, Индонезия ва Малайзия мамлакатлари университетининг етакчи мутахассис профессор-ўқитувчилари (Ҳиндистон уч нафар, Индонезиядан бир нафар, Малайзиядан бир нафар) тил соҳиблари сифатида кафедрада талабаларга сабоқ бердилар.

Ўзбекистондаги Ҳиндистон Элчихонаси кафедранинг бир қанча дарслик ва монографияларини нашр этишда кўмак берди. Жумладан, Т.А. Ходжаева ҳамда У.У.Муҳибоваларнинг Ҳиндистон халқлари адабиёти номли монографияси, М.Абдурахманова ва проф. Чандра Шекхар билан ҳамкорликда яратилган “Ғолиб сара ғазаллари” китоби, кафедрага оталиққа берилган Тошкентдаги Л.Б.Шастри номли ҳинди тилига ихтисослашган 24-умумтаълим мактаби ўқувчилари учун кафедра профессор-ўқитувчилари ҳамда мактабнинг ҳинди тили ўқитувчилари билан ҳамкорликда яратилган 5-11 синфларга мўлжалланган жами 7 та “Ҳинди тили” дарслиги 2022 йил Ҳиндистон Маданият маркази ҳомийлигида нашр этирилди. Дарсликлар тақдими Ҳиндистон элчихонаси, Л.Б.Шастри номли Ҳинд маданияти мааркази ҳамда

Ҳиндистон маданий алоқалар қосуллиги Президенти Винай Сехрабуддхенинг онлайн иштирокида бўлиб ўтди.

Шунингдек, элчихона томонидан тақдим этилган ҳинд тилларидаги бадиий, илмий ва ўқув адабиётига оид икки мингдан ортиқ китобларни ҳамда аудио-видео, компьютер, проектор каби техник жиҳозларнинг тухфа қилиниши ҳамда Маҳатма Ганди номидаги ҳиндшунослик илмий марказини доимий равишда янги китоблар ва жиҳозлар билан бойитиб борилиши ҳиндшуносларимиз учун муҳим аҳамиятга моликдир. Мазкур китоб фонди туфайли кафедрамиз ўқув илмий тадқиқот маркази бўлибгина қолмай, балки ҳинд филологиясини ўрганишнинг ўзига хос илмий-услубий ва ахборот марказига ҳам айланиши муқаррардир.

Ўзбек ҳиндшунослари томонилан таржимонлик фаолияти ҳам жуда яхши олиб борилган ва нуфузли меросга эга. Бунда ҳинд ёзувчилари асарлари ҳамда ўзбек адибларининг асаридан таржималар ҳам доимий равишда амалга оширилиб келинади. Хусусан, 1961 йилда Тагор таваллудининг 100 йиллигига бағишланган беш жилдлик китоб, Премчанд, Кришан Чандар, Яшпал, Сарожини Найда, Муктибодх, Чиннаппа Бҳарати романлари, Рамайна ва Маҳабхарата эпослари, Панчатантра, Хитопадеша, Шукасатати, Веталанинг 25-ҳикояси каби эртақ ва масаллар тўплами, Маҳатма Гандининг “Менинг ҳаётим” асарлари таржима этилган, шунингдек, Ўзбекистон телеканалида “Маҳабхарата” ва “Рамайна” сериаллари ҳам ўзбек тилида Амирулла Файзиев таржимасида намоиш этилган. Ўтган 75 йил давомида жами икки мамлакат адбларининг юздан ортиқ турли жанрдаги асарлари ўзбек ҳиндшунослари томонидан таржима қилиб ўзбек китобхонларига етказилган. Шунингдек, ўзбек адибларининг асарлари ҳам ҳинди тилига ўгирилган.

### HINDSHUNOSLIK DARG‘ALARI



## SHOMATOV OZOD NASRIDDINOVICH

(1940 - 2015)

Hindshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor.

O.N.Shomatov 1940 yil 17 iyulda Toshkentda tug‘ilgan. 1957 yilda Toshkent davlat universitetining sharq fakulteti hind bo‘limiga o‘qishga kirib, 1962 yilda tugatgan va shu yilning o‘zida ToshDUning Sharq fakulteti qoshidagi aspiranturaga kabul qilingan. 1964-1965 yillar malaka oshirish maqsadida Hindiston safarida bo‘lgan.

O.N.Shomatov 1966 yilda Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida «Лексико-грамматический очерк языка дакхини XVII в.» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan va shu yildan boshlab Hind filologiyasi (hozirgi Janubiy Osiyo tillari) kafedrasida dastavval oddiy o‘qituvchi, dotsent va 1968 yildan umrining oxirigacha kafedra mudiri lavozimida ishlagan.

O.N.Shomatov 1984 yilda ISSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida «Адаптация иноязычной лексики в системе южного хиндустани XV – XVIII вв.» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning ilmiy faoliyati hindiy va urdu tillarini atroflicha tadqiq etishga, ularning tarixi va dialektlarini, leksika va grammatikasini mukammal o‘rganishga bag‘ishlangan edi.

Olim 1973 yilda dotsent va 1987 yilda professor degan ilmiy unvonlarga sazovor bo‘lgan.

U 1970 yildan boshlab turli xalqaro anjumanlarda faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, 1990 yilda Praga shahrida, 1992 yilda Hindistonda – Dehlidagi G‘olib institutida, 1993 yilda Pokistonning Karachi va Rossiyaning turli shaharlarida tashkil etilgan konferensiya va simpoziumlar hamda Estoniya, Gruziya, Ukraina va Rossiyada o‘tkazilgan ilmiy-metodik va filologik ta’limga oid kengashlarda ma’ruzalar qilgan.

1996 yil AQSh (Fulbrayt), 1997 yil Hindiston (Anand Kumarasvami), 2005 yil Germaniya (DAAD) sovrindori sifatida ilmiy loyihalarni bajargan.

2000 yil Monreal (Kanada) va 2004 yil Moskvada o‘tkazilgan Jahon Sharqshunoslar Kongressida hamda 1999 yil London (Angliya) va 2003 yil Paramaribo (Surinam)da bo‘lib o‘tgan Jahon Hindiy tili Anjumanlarida ishtirok etkan. Bundan tashqari, Polsha, Vengriya, Mavrikiy, Germaniya, Italiya va Fransiyalarda turli ilmiy anjumanlarda qatnashgan.

1993 yildan boshlab Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Osiyo va Afrika xalqlari tillari ixtisosligi buyicha Ixtisoslashgan kengashning muovini hamda

O‘zbekistan davlat jahon tillari universiteti qoshidagi umumiy tilshunoslik, psixolingvistika va lingvistik tipologiya bo‘yicha Ixtisoslashgan kengashning a‘zosi. U 2006 yil kafedra qoshidagi «Mahatma Gandhi nomfidagi hindshunoslik markazi»ga asos solgan.

O.N.Shomatov o‘z ilmiy faoliyati davomida tilshunoslik, mamlakatshunoslik, qadimiy Hindiston va boshqa turli mavzularda 130 ga yaqin ilmiy maqola, 20 ga yaqin darslik, qo‘llanma, lug‘at, 10 ga yaqin monografiya nashr ettirgan. 20 dan ortiq ilmiy ishlarga muharrirlik qilgan, 6 nafar fan nomzodiga ilmiy rahbarlik qilgan.

### **RAHMONBERDI MUHAMMADJONOV**

(1929-1994)

O‘zbek urdushunoslik sohasiga tamal toshini qo‘ygan yirik hindshunos olim.

Ustoz Rahmonberdi Muhammadjonov O‘zbekistonda urdu va hindiy tillarining o‘qitilishiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Olimning o‘rta maktab va oliy o‘quv yurtlari uchun yaratgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari hali-hanuz nufuzini yo‘qotgani yo‘q. Jumladan, 1990 yil nashr qilingan “Urdu tili darsligi” va bir qator urdu va hindiy tili maktablari uchun mo‘ljallangan darsliklar shular sirasiga kiradi. Olimning qalamiga mansub urdu tili grammatikasiga doir ko‘plab maqolalari uning zamonasining yetuk lingvist olimi ekaniga yaqqol dalildir.

O‘zbek urdushunosligining darg‘asi ustoz Rahmonberdi Muhammadjonov qalami o‘tkir tarjimon edilar. Ul zotning mehnatlari samarasi o‘laroq 1973 yilda Toshkentdagi G‘afur G‘ulom nomli nashriyot tomonidan “ O‘zbekiston shoirlari” nomli she‘riy to‘plam urdu tilida nashr qilindi. 1979 yilda “ Progress” nashriyotidan Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Sharqqa bahor keldi” nomli she‘riy to‘plami urduga tarjima qilindi.

Butun zakovatiyu salohiyatini tadqiqot va tarjimaga bag‘islagan ustoz Rahmonberdi Muhammadjonovning ko‘p yillik mehnati bilan 1996 yili Pokistonda o‘zbek she‘riyatining sultoni Mir Alisher Navoiyning g‘azallari urdu tilida nashrdan chiqdi.

O‘zbekka Hindiston va Pokistonning birdek sevikli shoiri bo‘lgan Mirzo Asadulloxon G‘olibni tanitgan ham ustoz Rahmonberdi Muhammadjonov bo‘ladilar. 1965 yilda shoirning g‘azallari xalq shoiri Yong‘in Mirzo bilan hamkorlikda “Shaydo” nomi bilan dunyo yuzini ko‘rdi. 1975 yilda ustoz bir qator o‘z davrining eng taniqli shoirlari bilan birgalikda G‘olibning urducha va forscha she‘rlarini o‘zbek tiliga o‘girdilar.

Ustoz Rahmonberdi Muhammadjonov nasriy asarlarning tarjimasini bobida ham benazir edilar. 1962 yilda ular tomonidan Prem Chandning “Gaodan” romani “Qismat” nomi bilan Toshkentda chop etildi.

Ustoz Rahmonberdi Muhammadjonov vafotidan so‘ng 1995 O‘zbekistonda urdu tili va adabiyoti rivojiga qo‘shgan katta xizmatlari uchun Pokiston hukumati tomonidan “Pride of Performance” ( “Sharafli mehnati uchun”) nishoni bilan taqdirlandilar.

O‘zbek hindshunosligi rivoji yo‘lida samarali faoliyat ko‘rsatgan zabardast olim 1994 yilning 11 noyabr kuni chin dunyoga safar qildilar.

**Ilmiy yo‘nalishi** – urdu tilining grammatik tuzilishi. 10 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlari va ko‘plab badiiy tarjimalar muallifi.

**Asosiy ilmiy ishlari:**

1. Hindiy tili. Birinchi kitob.- Toshkent, 1958.- hammualliflikda.
2. Учебник языка урду.- Toshkent, 1959 – hammualliflikda.
3. Hindiy tili darsligi. Ikkinchi kitob. – Toshkent, 1962.- 220b. – hammualliflikda.
4. Отглагольные сложные глаголы в языках хинди и урду // научные труды ТашГУ. Востоковедение. Иностраные языки – Tashkent. 1967
5. Urdu tili darsligi. Ikkinchi sinf uchun. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988
6. Urdu tili. 3-sinf. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. .- 231b
7. Учебник языка урду для первого курса. Toshkent: O‘qituvchi, 1991.- 423c (soavtorstve s B.A Muxammedjanovoy).

**АУЛОВА РЕНА АРОНОВНА**

(1927-1997)

1927 йил Самарқанд шаҳрида тугилган. САГУ (Хозирги ЎзМУ) шарқ факултетининг 1949 йил битирувчиси. Шарқшунос- филолог-хиндшунос, педогогика фанлари номзоди, доцент (1979).

1950-1952 йиллар Туркистон Харбий Округи ходими; 1952-1993 йилга қадар Тош ДУ шарқ факультетида ўқитувчи, катта ўқитувчи ва доцент (1979). 1993 йилдан нафақада.

Илмий йўналиши - хиндий тилшунослиги, хозирги замон хиндий тили. 20 дан ортиқ илмий-услубий ишлар, ўқув қўлланмалар ва дарсликлар муаллифи.

Рена Ароновна хиндий тилида методикаси энг кучли устозлардан ҳисобланадилар. Устозимиз қаламларига мансуб 1-курс талабалари учун

ёзилган “Учебник языка хинди” номли илк дарслик хинди тилига қизиқувчилар учун энг қулай ва ҳеч қандай устозсиз тилни ўрганиш имкониятини берувчи дарсликдир. Бу эса устозда методика, тил ўқитиш услуби кучлилигидан даолатдир. Ушўбу дарслик бўлган боғлиқ бир хотира эсимда - кафедрага Россиянинг узок-узок қишлоқларидан хинди тилига қизиқиб, уни Р.А.Аулованинг китоби орқали ўрганиб, ушбу китоб муаллифига миннатдорчилик билдириб ёзилган кўплаб хатларни ўқиганмиз. Рена Ароновнада методиканинг кучлилигига яна бир мисол тариқасида шуни эслаб ўтиш мумкин. Ўша пайтларда кўпгина чет мамлакатлардан ёшлар кафедрамизга ўқишга келар эди. Бир гуруҳда бир нечта чет эллик ўзбеклар билан бир гуруҳда хинди тилини ўрганар эди. Шундай гуруҳлардан бирида 5 нафар ўзбек ва 2 нафар вьетнамлик болалар ўқир эди. Мана шу гуруҳда Рена Аронова хинди тилидан дарс берар эдилар. Табиийки, 7 нафар талабанинг тил билиш қобилияти турли хил. Шунда устоз ҳар бир талабалани ўзининг имконияти, иқтидори ва тилни ўрганиш кучига қараб вазифа берар эдилар. Шунда вазифаларга баҳо қўйилганида икки кишига “4” баҳо қўйилса, талабалар ҳайрон бўлмасин деб, бизга изох берар эдилар: “сизлар ҳайрон бўлманглар, нега икки хил талаба бир хил баҳо олди деб. Ҳар бир талабалага ўзининг билим даражасидаги вазифа берилган ва ҳар бири ўзига берилган вазифанигина яхши баҳога тайёрлаган, агар вазифаларни алмаштирсак, унда баҳо ҳам ўзгаради, лекин бу адолатли баҳо бўлмайди, дердилар. Биз устознинг талабага айнан мана шу ёндошгувларини ҳали ҳануз ўз тажрибамизда, иш фаолиятимизда қўллаб келамиз ва бу жуду тўғри ва даолатли метолика, деб биламиз.

**Асосий илмий ишлари:**

Номзодлик диссертацияси мавзуси: “Хиндий тили дарслиги”. -Т.,1973.

1.Учебник языка хинди: для первого курса. - Ташкент, 1969. -252с.

2.Обучение устной речи на языке хинди на основе учебного текста // Труды ТашГУ. Сер. Востоковедение.Языкознание. -Ташкент, 1973. -Вып.433.- С.171-176.

3.Пособие по домашнему чтению (язык хинди). -Ташкент,1977.

4. Пособие по домашнему чтению для студентов 2 курса (язык хинди).- Ташкент, 1982.-98с.

5.Учебник языка хинди для 2-го класса. -Ташкент, 1985. -110с.- Всоавторстве.

6.Хиндий тили дарслиги: 2-синф.-Ташкент, 1987. -Л.А.Симаева билан ҳамкорликда

7. Методические рекомендации для учителей (часть I-II). - Ташкент, 1988.
8. Хиндий тили дарслиги: 3-синф. Ташкент, 1993.

### **BUYANOVA ANASTASIYA PAVLOVNA**

(1923-2001)

Buyanova Anastasiya Pavlovna 1925-yil Moskva shahrida tavallud topgan.

Moskva davlat universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari institutining Hind filologiyasi kafedrasida o‘qishga kirib, o‘sha yerda tahsil olgan.

Toshkent davlat universiteti sharq fakultetidagi Hind filologiyasi kafedrasida urdu tili mutaxassislari yetishmaganda kafedra mudiri V.S.Moskolyov tomonidan bir guruh moskvalik hindshunoslar qatori A.P.Buyanov ham taklif qilingan. Shu tariqa A.P.Buyanov umrining oxiriga qadar talabalarga urdu tili hamda mazkur til bilan bog‘liq ko‘pgina fanlardan saboq berib kelgan.

A.P.Buyanov oliy ta‘lim dargohi talabalariga dars berish bilan bir qatorda Toshkentdagi urdu va hindiy tili o‘qitiladigan maktabning boshlang‘ich va katta sinf o‘quvchilari uchun darsliklarni tayyorlashga katta xissa qo‘shgan.

Anastasiya Pavlovna kafedrada urdu tili, urdu tili sintaksisi, urdu matbuoti kabi fanlardan talabalarga saboq berganlar. Ustoz talabalar bilan bog‘liq har qanday muammoni ijobiy, ayni talabaning foydasi uchun, lekin adolatli hal qilishga doim harakat qilganlar. Shu sabab barcha talabalar biron muammosi bo‘lsa darrov Anastasiya Pavlonaning yoniga kelib dardlashar edi. Talaba bilan bo‘lgan bir voqeaning ko‘pchilik guvohi bo‘lgan. Bir yili urdu tili talabasi Hindistonga 10 oylik stajirovkaga yuborildi. Hindistonda u o‘z do‘stining uyiga mehmonga borib, u yerda hind taomi yoqmasdan mazasi bo‘lmay qolgan va shu tufayli yotoqxonaga kelolmagan. Bundan xabar topgan Sovet elchixonasi uni tartibni buzgan talaba sifatida qilgan xatosi uchun Toshkentga qaytarib yuborib, chora ko‘rish kerakligini ham aytgan. Toshkentda uni o‘qishdan xaydashga qaror qilingan. Shunda Anastasiya Pavlovna bu talabani yaxshi bilganlari, u hech qachon yomon ish qilishi mumkin emasligini tushungan holda Sharq fakulteti partkomi a‘zosi sifatida masalaga aralashib talabani xaydallishdan saqlab qolib, xayfsan berish bilan cheklanganlar. Shundan keyin Anastasiya Pavlovna talabalar orasida yana bir bor adolatli va mehribon ustoz nomini olib, ularda ustozga bo‘lgan ishonch yana ham ortgan. Shuningdek, fakultet ustozlarida ham A.Buyanovaga nisbatan hurmat ortgan. A.Buyanovaning faoliyatida talabalar bilan bog‘liq bunday katta kichik masalalarni juda ko‘p tilga olish mumkin.

Kafedrada urdu tili bo‘yicha sifatli mutaxassislar yetishtirishda A.P Buyanovanning o‘rni va ahamiyati juda katta bo‘lgan.

**TEMUR G‘IYOSOV**  
(1931-2017)

Temur G‘iyosov 1931-yil 28-iyunda Toshkent shahrida sharqshunoslar oilasida tavallud topdi. Temur G‘iyosov 1948-yilda Toshkentdagi 75-o‘rta maktabni tamomlagach, o‘sha yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Sharq fakultetiga o‘qishga kirdi. Universitetni 1953-yilda imtiyozli diplom bilan bitirib, shu yili Sharq fakultetining Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixi bo‘yicha aspiranturaga kirdi va 1956-yilda uni bitirdi. 1958-yilda Temur G‘iyosov Moskvada Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining ilmiy kengashida “Hindistonning Janubi-sharqiy Osiyo va Uzoq Sharqda keskinlikni yumshatish uchun kurashi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1973-yilda esa “Hindiston diplomatiyasining Yaqin Sharq va Janubi-sharqiy Osiyoda agressiya va neokolonializmga qarshi kurashi (1947-1967)” mavzusida tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi.

Temur G‘iyosov 1956-yildan boshlab Sharq fakultetining Xorijiy malakatlar tarixi kafedrasida o‘qituvchilik qila boshladi. 1962-yildan katta o‘qituvchi va dotsent lavozimiga o‘tdi. 1977-yilda professor unvonini oldi.

Temur G‘iyosov avval Toshkent davlat universitetining Sharq fakultetida, so‘ngra Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Xorijiy mamlakatlar tarixi” kafedrasida, “Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixi”, “Hindiston tarixi”, “Pokiston tarixi”, “Pokistonning ijtimoiy-siyosiy davlat tizimi va huquqi”, “Hindiston va Pokiston tarixnavisligi va manbashunosligi”, “Hindistonning O‘zbekiston Respublikasi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari”, “Hindistonning xalqaro munosabatlardagi roli”, “Hindistonning Arab Sharqidagi siyosati”, “Hindistonning afg‘on masalasidagi siyosati” fanlaridan ma‘ruzalar o‘qidi.

Temur G‘iyosovning Xorijiy mamlakatlari tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga doir maqolalari respublikamiz matbuoti, jumladan, “O‘zbekiston ovozi”, “Pravda Vostoka”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Narodnoye slovo”, “Toshkent oqshomi”, “Turkiston”, “Hurriyat” gazetalarida, “Muloqot”, “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar”, “Fan va turmush”, “Jahon adabiyoti”

jurnallarida va ko‘plab ilmiy to‘plamlarda, shuningdek, Hindistonda ham nashr etilgan.

Temur G‘iyosov qalamiga mansub bo‘lgan ilmiy ishlar Hozirgi Hindistonning ijtimoiy, siyosiy va davlat tuzumi, Hindiston va Pokistonning tarixini o‘rganish, Hindiston va xalqaro xavfsizlik masalalari, Hindiston – Pokiston munosabatlarini o‘rganish, Hindiston – O‘zbekiston aloqalarini tadqiq etish kabilar tashkil etgan.

1999-yilda professor Temur G‘iyosovich G‘iyosov respublikamizda birinchi marta o‘zbek tilida talabalar uchun “Hindistonning yangi tarixi”, 2000-yilda “Qadimgi Hindiston tarixi” va 2004-yilda “Hindistonning o‘rta asrlar tarixi” deb nomlangan darsliklarini nashr ettirdi.

So‘nggi yillarda xorijiy tillardagi tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish ilmiy loyihasi doirasida s.f.d. N. Abdullayev rahbarligidagi ilmiy guruh tomonidan “Hindiston tarixi”, “Pokiston tarixi”, “Afg‘oniston tarixi”, “Eron tarixi” singari o‘quv qo‘llanmalar yaratildi. Mana shu ulkan ishni boshida ham professor T. G‘iyosovning xizmatlari katta bo‘ldi. Jumladan, u boshchiligida “Hindiston tarixi” va “Pokiston tarixi” o‘quv qo‘llanmalari yaratildi.

## G‘ULYAMOVA RA‘NO

(1939-1985)

G‘ulomova Ra‘no Hojiakbarovna hindshunos olimasi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. 1939 yil 20 yanvarda Toshkentda tug‘ilgan. 1957-1962 yillar ToshDU sharq fakulteti hind filologiyasi bo‘limida taxsil oldi. R. G‘ulomova 1962 yildan umrining oxiriga kadar sharq fakultetida ukituvchi va katta o‘qituvchi lavozimlarida xizmat qildi hamda hind tili, xind xalqlari adabiyoti kabi kurslardan talabalarga dars berdi. U talabalik davrida til malakasini oshirish uchun Hindistonda bo‘lgan. 1969-1972 yillar SSSR FA Sharqshunoslik insti tuti aspiranturasida tahsil ko‘rdi. 1975 yilda SSSR FA Sharqshunoslik instituti ilmiy kengashida «Vishnu Prabxakar prozaik i dramaturg» degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini ximoya kildi. 1979 yilda unga dotsentlik ilmiy unvoni berilgan. R. G‘ulomova 1985 yil 11 noyabrda vafot etgan.

Ra‘no G‘ulomova Moskvada nomzodlik ishini himoya qilgach, Toshkentga qaytib, kafedra mudiri lavozimida ishlagan. U talabalarga hindiy tili va zamonaviy hind adabiyoti fanidan dars bergan. Tarjima nazariyasi va amaliyoti fani bo‘yicha dars jarayonida masus tarjima qilingan matnlarni tanlab olib, ularni talabalarga avval hindiy tilidan tarjima qildirib, so‘ngra xatolarni anglash uchun mohir tarjimon

tarjimasi bilan qiyoslatar edilar. Bu esa talabada tarjima mahoratining o‘shida kata yordam berar edi.

Olima 20 ga yaqin ilmiy maqolalar va o‘kuv kullanmalari yozib nashr ettirgan.

Asosiy ilmiy ishlari:

1. Nekotorie ideyno-xudojestvennie osobennosti romana V. Prabxakara Nishikant». T., 1973.
2. Drama V. Prabxakara «Doktor». T., 1978.
3. Metodicheskaya razrabotka po obshchestvenno-politicheskim tekstam xindi. T., 1984.
4. Odnoaktnaya dramaturgiya V. Prabxakara.- Trudi TashGU, № 72, Vostokovedenie. T., 1984, S. 18-26.

### TESHABOYEV FOTIX G‘ULOMOVICH

(1939 - 2005)

Toshkent shahrida tug‘ilgan. ToshDU (hozirgi O‘zMU) sharq fakultetining 1962-yil bitiruvchisi. Sharqshunos-filolog-hindshunos, falsafa fanlari nomzodi, dotsent, davlat arbobi.

1962-yildan ToshDU sharq fakulteti hind filologiyasi kaferasida o‘qituvchi; 1964-yildan O‘z FA Falsafa va huquq institute aspirant; 1966 dan ilmiy xodim, 1969-yildan katta ilmiy xodim (orada 1970-1973 yillar SSSRning Hindistondagi elchixonasida tarjimon), 1973-1977 yillar institutning xorijiy Sharq mamlakatlarning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri sektorida katta ilmiy xodim va 1977-yildan sector mudiri; 1978-yilda Oliy partiya maktabida kafedra mudiri; 1979-1984 yillar Hindistonning Bombay shahridagi Sovet madaniyat markazida direktor; 1984-1985 yillarda O‘zb. KPMK Axborot va xorijiy aloqalar bo‘limining instruktori, 1985-1989-yillarda xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy aloqalar jamiyati raisi, 1989-1991 yillarda xalqaro bo‘lim mudirining muovini, 1991-yildan O‘zR TIVda vazirning birinchi o‘rinbosari; 1993 yili AQSH da O‘zR Muvaqqat ishlar vakili, 1994 yildan O‘zRning BMTdagi Doimiy vakili; 1996-yil sentabrdan O‘zR TIVda Maxsus topshiriqlar bo‘yicha Elchi, 1997-199-yillar O‘zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchisi. 2000-2004-yillar BMT Doimiy vakili, BMT taraqqiyot vakilining maslahatchisi (orada 2002 yili Oksford Islom markazi tinglovchisi); 2003-yili Turkiyaga ilmiy safar; Shu orada ToshDSHI Xalqaro munosabatlar kafedrasi dostenti.

1996-yili AQSHning Tennesi shtati gubernatori tomonidan F. Teshaboyevga Ezgu niyatlar Elchisi degan faxriy unvon berilgan. Kaliforniya shtatidagi Ilmiy-

madaniy akademiyasining Faxriy aʼzosi (1995), Javoharlaʼl Neru nomidagi Xalqaro mukofot sohibi (1988). 1-klassdagi maslahatchi (1991).

**Ilmiy yoʻnalishi** – Hindistonda ijtimoiy-falsafiy fikr. 70 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Juda koʻp iqtisodiy-siyosiy, ilmiy anjumanlar ishtirokchisi. (Nepal, 1969; Praga, Belgiya, Jakarta, Olmaota, Davos (Shvetsariya), Kvetta (Pokiston).)

**Asosiy ilmiy ishlari:**

Nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi: «Философские и общественно-политические взгляды просветителя XIX в. Саид Ахмадхана». – Т.,1969.

1. Саид Ахмадхан-индийский мыслитель XIX века// Общественные науки в Узбекистане.- Ташкент, 1967.-№3. – С.43-46.

2. Sayid Ahmadxon// Xorijiy Sharq xalqlarining ilgʻor ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixi ocherki. – Toshkent, 1971. –В.53-59.

3. Мировоззрение Саид Ахмадхана// Из истории прогрессивной общественной и философской мысли в Индии. Ташкент: Фан, 1976.

4. Muhmmad Iqbol dunyoqarashining asoslari//Muhammad Iqbol-Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri. – Toshkent: Fan, 1979.

5. Essay on the history of Progressive Thinking in India// Urdu Academy of Science. – 1989. – toʻplam.

6. Old Uzbekistan walks a new path. Seattle Post-Intelligencer.-1995.-март№10.

7. Images of Amir Temur. Amir Temur shabihalari. Образы Амира Темура. Ташкент, 2001.

8. Hindiston: Yangi va eng yangi davr falsafiy qarashlari: M. Gandi, R. Tagor. J. Neru haqida//Mavlono Abul Kalam Ozod institute ilmiy toʻplami. – Kalkutta, 2004.

9. Uzbek-Indian Realties: focus on new perspective // “News and views”.– Delhi, 2004. – September.

10. Hurmo va marvaridlar: Arab shoirlari ijodidan tarjimalar//Sharq yulduzi. – Toshkent, 2004.-№3-4.

11. «Положение женщин Узбекистана» //Журнал «Soviet Mari». – 1885. - №11- hind tilida.

12. Diplomat-sharqshunoslar// Sharq mashʼali. – Toshkent, 2001. № 3-4.

**KOMILOV ZOHID SABITOVICH**

(1945 - 1996)

Toshkent shahrida tugʻilgan. ToshDU (hozirgi OʻzMU) sharq fakultetining 1968 – yil bitiruvchisi. Sharqshunos-filolog-hindshunos, filologiya fanlari nomzodi.

1967 – 1968 yillar Hindistonning Lakxnau universiteti tinglovchisi; 1968 yildan ToshDU sharq fakultetining hind filologiyasi (hozirgi Janubiy Osiyo tillari) kafedrasida oʻqituvchisi (orada: 1987 – 1991 yillar Hindistonning Kalkutta shahrida tarjimon), umrining oxirigacha katta oʻqituvchi.

Zohidjon Komilov Oʻzbekistonda ilk bengalshunos boʻlganlar. Ular doim bengal guruxlariga asosiy sharq tilidan saboq berib, Oʻzbekistonga bir qana bengalshunoslarni yetishtirib berganlar. Oʻzbekistonda har ikki yilda oʻtadigan Osiy va Afrika xalqlari xalqaro kinofestivalida Bengaliyadan kelgan mehmonlar uchun tarjimon sifatida droimiy ravishda Zoxid aka jalb etilganlar. 1995 yili “Komilov Zohid Sobitovich - "Опыт контрастивного изучения деепричастных форм в языках бенгали и хинди" mavzusidagi qiyosiy tipologik ishni muvaffaqiyatli himoya qilganlar.

**Ilmiy yoʻnalishi** – tilshunoslik, hindiy tili. 18 ta maqola muallifi.

**Asosiy ilmiy ishlari:**

Nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi: «Опыт контрастивного изучения деепричастных форм в языках бенгали и хинди». – Тошкент, 1995.

1. Синтаксические функции деепричастия на - iya, - e в бенгали и деепричастия на - kar, - ke; - karke в хинди // Индийское языкознание. – М.: Наука 1978. -С. 94 - 103 .

2. Деепричастие и деепричастные Конструкции в современном языке хинди // Научные труды ТашГУ. Сер. «Востоковедение». – Ташкент: изд-во ТашГУ, 1979. -С. 31 - 33 .

3. Семантико - синтаксические эквиваленты условного деепричастия на ile / -le бенгальского языка в хинди // Научные труды ТашГУ, «Вопросы востоковедения. – Ташкент: изд - во ТашГУ, 1979. -С. 32-40 .

4. Переход деепричастий в другие классы слов в языках бенгали и хинди // Труды ТашГУ. Сер. «Вопросы востоковедения». – Ташкент, 1981. -С. 46-52 .

1. Вопрос о синтаксической роли деепричастий и деепричастных оборотов в современных языках бенгали и хинди // Труды ТашГУ. Сер. «Восточное языкознание». – Ташкент, 1987. -С. 80-84 .

**IBROHIMOV ANSORIDDIN PO‘LATOVICH**

(1952-2011)

Taniqli sharqshunos va hindshunos olim Ibrohimov Ansoriddin Po‘latovich 1952 yil 10 fevral kuni Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Toshkent shahridagi 92-maktabda tahsil olgan Ansoriddin Ibrohimov ilm-fanga bo‘lgan alohida muhabbati va cheksiz qiziqishlari sababli tengdoshlari orasida ajralib turardi. Maktabni a‘lo baholarga tugatib, 1969 yilda Toshkent davlat universitetining (*hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti*) hindiy tili bo‘limiga o‘qishga qabul kilindi. 1974 yil mazkur universitetni imtiyozli diplom bilan tamomlab, ikki yil davomida Hindistonning “Lakxnau” universitetida hindiy tili bo‘yicha malaka oshirib qaytdi va poytaxtdagi 144-o‘rta maktabda o‘qituvchilik qilib, olgan barcha bilimlarini o‘quvchilarga qunt bilan o‘rgatdi.

1977-1981 va 1989-1990 yillarda turli nufuzli nashriyotlarda muharrirlik qilib, tahrir va tarjimada boy tajriba to‘pladi, o‘zbek, urdu, hind tillariga oid turkum nashrlarni chop ettirishga katta hissa qo‘shdi.

1981-1983 yillarda Hindistonda “Bhilay metallurgiya kombinati”da bosh tarjimon vazifasida ishlagan kezlarida esa hindiy tilini qo‘llash borasida ham katta amaliy tajriba to‘pladi. Bu betakror va go‘zal mamlakatning oddiy odamlar turmush tarzi, taraqqiyot jarayonlari va adabiyotini o‘rgandi.

Shuningdek, Ansoriddin Ibrohimov mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish maqsadida 1993-1994 yillar davomida Pokiston xizmat safarida bo‘lib, Boburiylar saltanatining turli davrlarda poytaxti bo‘lgan va asosiy madaniyat markazi Lahor shahrida ilk bora “O‘zbek tili” kurslarini tashkil etishda jonbozlik ko‘rsatdi, darslarga bevosita o‘zi rahbarlik qildi. Bu istiqloлга endigina erishgan mamlakatimiz uchun, ona tilimizning ixlosmandlari uchun xorijdagi haqiqiy g‘alaba edi.

Uni buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatiga yuksak ehtirom ruhida kamol topgani, shoh va shoirning qiyosi yo‘q she‘riyatini jahon miqyosida tolmas targ‘ibotchisiga aylantirdi. Millat oldidagi ma‘naviy-ma‘rifiy mas‘uldorlik hissi, Ansoriddin Ibrohimovni kelgusida boburshunoslik fanining rivojiga salmoqli hissa qo‘sha olgan, xalqaro miqyosdagi katta olimga aylantirdi. Olimning vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi, uning shoh asari “Boburnoma” ga bag‘ishlangan “Boburiylar merosi” (1993 y.), “Boburnoma buyuk asar”(2000 y.) kabi kitoblari nashrdan chiqdi. Shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik institutida olib borgan faoliyati davomida, “Boburnoma”dagi hindcha so‘zlar tadqiqi” mavzuidagi nomzodlik (2001 y), “Bobur asarlari leksikasining lingvostatistik, semantik va genetik tadqiqi” (“Devon”,

“Mubayyin”, “Aruz”) mavzuida doktorlik (2008 y.) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ansoriddin Ibrohimov chet elda o‘tkaziladigan halqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etib kelgan. U kishining 4 ta monografiyasi, “Urdu tili leksikologiyasi” (2005) kabi o‘quv qo‘llanmalari, 100dan ortiq ilmiy-maqolalari o‘zbek, rus, urdu va hindiy tillarida chop etildi. Jumladan, turli yillarda “Jahon adabiyoti”, “Guliston”, “Tafakkur”, “Moziydan sado”, “O‘zbekiston matbuoti”, “Sharqshunoslik”, “Sharq mash‘ali”, “Yoshlik”, “Axbare-urdu” (Pokiston), “Aziya i Afrika segodnya” (Rossiya) jurnallarida, “Toshkent oqshomi”, “Ma‘rifat”, “Pravda Vostoka”, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetalarida boburshunoslik, Bobur asarlarining Pokiston, Hindiston, AQSh va Yaponiyada o‘rganilishi, “Boburnoma”dagi urducha va hindcha so‘zlarning qo‘llanilishi” kabi maqolalarida ushbu tillarning go‘zalligi, ularning qiyosiy tahlili beriladi. Boburiylar davridagi adabiyotlarda Hind diyorida qadimiy joy nomlarining qo‘llanilishi haqida juda salmoqli ilmiy tahlillar o‘z ifodasini topgan.

1996-2011 yillar mobaynida Toshkent davlat sharqshunoslik institutining “Janubiy Osiyo tillari” kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent, professor, kafedra mudiri lavozimlarida ishladi. Urdu va hindiy tillarini o‘rganish, Bobur merosini o‘rganish bilan shug‘ullanayotgan o‘ndan ortiq ilmiy tadqiqotchilarga bevosita rahbarlik qildi.

Ansoriddin Ibrohimovning lug‘atshunoslik ishlari alohida maqtovgga sazovor. Urdu va o‘zbek tilidagi mushtarak so‘zlarni qunt va sabot bilan o‘rganib “Urducha-o‘zbekcha mushtarak so‘zlar lug‘ati” ni tuzdi. Ushbu lug‘at Pokiston (Islomobod) va O‘zbekistonda qayta-qayta nashr etildi. Mazkur lug‘at bugungi kunda yosh urdushunoslar hamda pokistonliklar uchun juda qo‘l kelmoqda.

Kamtarin olim bu kabi yutuqlardan tashqari tarjimonlik sohasida ham barakali ijod qilgan, ko‘plab hind va pokistonlik yozuvchilarning hikoya va ijod namunalarini katta mahorat bilan tarjima qildi. Jumladan, “Otash nafaslar” (1994) hikoyalar to‘plami, Bhisham Sahniyning “Darichalar” (1983) povest va qissalari, Krishan Chandarning “Xotiramdagi chinorlar” (1986), “Qo‘lim yo‘qoldi” (1990), “Dadar ko‘prigidagi bolalar” (1999), Premchandning “Shatranj ishqibozlari” (1990), “Xito‘padesha yoki ibratli hikoyatlar” (1997, 2008) qissa va hikoyalarini, hind yozuvchilari asarlaridan iborat “Hind adabiyoti XX asar ko‘zgasida/Chiroq yonar tun bo‘yi” (2008) hikoyalar to‘plamlarini hammualliflikda chop ettirishi o‘quvchilarga juda manzur bo‘ldi.

Shuningdek taniqli o‘zbek yozuvchisi Erkin Vohidovning “Oltin devor” asarini ham urdu tiliga sermazmun mohiyatini saqlagan holda tarjima qildi va ushbu p’esa 1996 yilda Pokistonning Lahor shahrida sahnalashtirilib, keng omma e’tiboriga havola etildi.

2011 yilda esa Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida tashkil etilgan o‘zbek tili kurslarida professional ta’lim bergani e’tiborga molik.

Boy ilmiy va ma’naviy meros sohibi hayot bo‘lganlarida bu yil 70 bahorni qarshi olar edilar.

Jahon madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk ijodkorlarning merosini xalqimizga etkazishdek, shuningdek O‘zbekistonda hindshunoslik sohasi rivojiga zalvorli hissa qo‘shgan yirik sharqshunos, hindshunos va boburshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Ansoriddin Ibrohimovning xotirasi va xayrli ishlari qalbimizda abadiy qoladi.

### **YO‘LDOSHEV SA‘DULLA**

(1936 – 2008)

Sa’dulla Abdullayevich Yo‘ldoshev sharqshunos olim, falsafa fanlari nomzodi, dotsent. 1936-yil 25-yanvarda Toshkentda tavallud topgan. 1955-yil O‘rta Osiyo davlat universiteti sharq fakultetining hind filologiyasi bo‘limiga kirib o‘qidi. 1960-yilda fakultetni filolog - hindshunos mutaxassisligi bo‘yicha tamomlab, O‘zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyotida korrektor, so‘ngra xorijiy mamlakatlar adabiyoti bo‘limida muharrir lavozimida ishladi. 1964-yilda esa O‘zbekiston FA Falsafa va xuquq institutining xorijiy Sharq xalqlari falsafasi bo‘limiga kichik ilmiy xodim bo‘lib ishga o‘tdi. Bu orada bir yil Xindistonning Bokaro metallurgiya zavodida tarjimon bo‘lib xizmat qilib kaytdi. 1967-1970-yillar davomida o‘zi ishlagan institutning xorijiy Sharq xalqlari falsafasi bo‘limining aspiranturasida tahsil oldi. So‘ngra yana shu bo‘limda xizmat vazifasini davom ettirdi. S. Yo‘ldoshev 1971-yilda Uzbekiston FAning ijtimoiy fanlar bo‘yicha birlashgan ilmiy kengashida «Muhammad Iqbolning dunyo qarashlari» degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Himoyadan so‘ng Toshkent davlat universitetiga ishga o‘tadi va 1971-yildan universitetning tarix fakultetida Falsafa tarixi kafedrasida katta o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshlaydi. 1974-yildan dotsent, 1991-yildan falsafa tarixi va mantiq kafedrasining mudiri lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shu bilan birga S.Yo‘ldoshev 1976-yili Pokiston Islom Respublikasida ilmiy safarda bo‘ldi. S.

Yo‘ldoshev yaxshi tarjimon ham. Uning urdu tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan roman va hikoya to‘plamlari chop etilgan.

**Asosiy ilmiy ishlari:**

1. Iqbol gumanizmi.- «Sharq yulduzi» j-li. T., 1970, 6-son.
2. Muhammad Iqbol. T., 1971.
3. Muhammad Iqbol - poet i filosof.- V kn.: Ocherki po istorii obshestvenno -filosofskoy misli zarubejnogo Vostoka». T., 1972.
4. Beruniy kadimgi hind falsafiy maktablarida materialistik tendensiya xaqida. T., «Fan», 1973.
5. Muhammad Iqbol ideal jamoa xaqida.- «O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar» j-li. T., 1973, 3- son.
6. Miroponimaniye Muhammada Iqbol. V kn.: «Iz istorii progresivnoy obshestvennoy i filosofskoy mysli v Indii». T., «Fan», 1976.
7. Muhammad Iqbol dunyoqarashining ayrim masalalari.- «Muhammad Iqbol - Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri» kitobida. T., «Fan», 1979.
8. Voprosi kriticheskogo analiza v osveshenii istorii filosofii. Sbornik nauchnix trudov Tashgu. T., 1988.
9. Antik davr faylasuflari din haqida.- «Din tarixidan ocherklar» kitobida. T., «O‘zbekiston», 1993.

**AMIR FAYZULLA**

(1945-2021)

Hind adabiyoti namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish borasida hindshunos tarjimon Amir Fayzullaning mehnatlari tahsinga sazovordir. Amir Fayzulla nafaqat hindiy tilidan, balki urdu, uyg‘ur, rus tillaridan ham qator badiiy tarjimalarga qo‘l urgan mahorat egasidir.

A. Fayzulla hindiy tilidan ko‘plab turli janrdagi asarlar tarjima qilgan. Bolalar adabiyotidan tortib, Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan yirik asarlarning o‘zbekcha tarjimasi A.Fayzulla qalamiga mansubdir. “Hind xalq ertaklari”, “To‘tinoma” va “Ayyor vazir” nomli hind ertaklari, Krishan Chandar, Yashpal, Premchand, Bhisham Sahniy hikoyalari, shuningdek, “Otash nafaslar”, “Indiraning sovg‘asi” hikoyalar to‘plamlari, Prem Chandning “Najot”, “Jang maydoni”, “Fidoi”, “Sevgi in’omi”, “Nirmala”, Jagdish Chandarning “O‘z uyida begona”, Bhisham Sahniyning “Basantiy”, Krishan Chandarning “Bir qizga ming oshiq” kabi romanlari va K. S. Duggalning “Kuzning to‘liq kechasi” qissasi shular jumlasidandir.

Tarjimon chet tilidagi birgina soʻz, tushuncha yoki holatni oʻquvchiga tushunarli boʻlishini taʼminlash maqsadida, baʼzida, bir jumla, hatto bir abzas bilan ham tarjima qilishi mumkin. Shuningdek, tarjima qilish jarayonida asliyatda berilgan bironta soʻzni qoʻllamasdan ham goʻzal tarjima taqdim etishi mumkin.

Chet tilidan biror bir maʼlumotni kirib kelishiga beshak tarjimon daxldor hisoblanadi. U xoh ilmiy boʻlsin, xoh badiiy. Tarjimon bor mahoratini ishga soladi, davlat, millat, tilidan qatʼiy nazar matnni ona tilida ravon boʻlishini taʼminlaydi.

Hozirgi kunga kelib, oʻzbek tilida Ram, Krishna, Radha, Raj nomlari, yomgʻirlar mavsumi, olov atrofida yetti marotaba aylanish, karvachoʻt roʻzasi tushunchalari, sari, bindi, sindur kabi soʻzlarning na tarjimasiga va na izohiga hojat bor. Hind madaniyati, tili va adabiyoti oʻzbek kitobxonlari, tomoshabini qalbidan joy egallashiga albatta, tarjimonlarning hissasi beqiyosdir.

Har doim taʼkidlanganidek, tarjimon avvalambor oʻz ona tilini chuqur bilmogʻi darkor. A.Fayzulla aynan ana shunday tarjimondir.

Ilk nazmiy tarjimalaridan “Hind sheʼrlari” toʻplami boʻlib, unda Hindiston shoilari nazm gulshani jamlangan. Keyinchalik ham tarjimon gazeta va jurnallarda qator sheʼriy tarjimalar eʼlon qildi. 2012 yil “Jahon adabiyoti” jurnali sahifalarida A. Fayzulla tarjimasida Bahodurshoh Zafarning gʻazalallari, Vishvankar Kumarning “Hayot”, Nagarjunning “Gandi”, Rajesh Vidroʻhiyning “Bilsangiz”, “Qonun”, Ali Sardor Jafriyning “Suhbat” sheʼrlari, Subhadra Kumariy Chouhanning “Jhansiy malikasi” qasidasidasi nashr qilindi.

A. Fayzulla nafaqat hindiy tilidan, balki, oʻzbek tilidan hindiy tiliga ham nasriy va nazmiy asarlar tarjima qilgan. 1975 yilda A. Muxtorning “Chinor” romani A. Fayzulla tarjimasida chop etildi.

Sheʼriy tarjimalarda ham juda sermaxsul ish olib borib, oʻttizga yaqin sheʼriy asarlarni hamda bir qatorda serial va kinofilmlar tarjimasiga ham qoʻl urgan. Amir Fayzulla umrining asosiy qismini “Jahon adabiyoti” jurnali tahririyatida oʻtkazgan.